



T. JUMAMURATOV ASARLARIDA BADIY TAKRORNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Seytnazarova Injayim Erjanovna

Qoraqalpoq davlat universiteti

Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasi professori w.a.,f.f.n.

Annotatsiya: Ushbu tezis T. Jumamuratov she'riyatida badiiy takror hodisasining lingvostilistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda badiiy takrorning leksik, morfologik va sintaktik turlari misollar asosida yoritilgan. Anafora, epifora, simploka kabi uslubiy vositalarning she'r ta'sirchanligi va ritmini shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy takror, anafora, epifora, simploka, she'riyat tili.

Annotation: Тезис посвящён анализу лингвостилистических особенностей художественного повтора в поэзии Т. Жумамуратова. В работе рассматриваются лексические, морфологические и синтаксические виды повтора на основе поэтических примеров. Показана роль анафоры, эпифоры и симплоки в усилении выразительности и ритмической организации стиха.

Ключевые слова: художественный повтор, анафора, эпифора, симплока, поэтический язык.

Abstract: The thesis examines the linguostylistic features of artistic repetition in the poetry of T. Jumamuratov. The study analyzes lexical, morphological, and syntactic types of repetition through poetic examples. The role of anaphora, epiphora, and symploce in enhancing expressiveness and shaping poetic rhythm is highlighted.

Keywords: artistic repetition, anaphora, epiphora, symploce, poetic language.



Takror tilshunoslikning ham, adabiyotshunoslikning ham obyekti bo'lib, takrorlanib kelgan tovush, so'z badiiy nutqqa o'zgacha badiiy-estetik ma'no qo'shadi. Sh.Asqarova badiiy takrorning murakkab hodisa ekanini, uning turlarini ko'rsatadi[1,12-13]. T.Jumamuratov badiiy takrordan har xil usullarda foydalanadi.

Badiiy takrorning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik takror kabi turlari mavjud [2, 232-233].

Anafora – so'zlarning nutqda yoki she'r misralarining boshida takrorlanib kelish hodisasidir [3, 24]. Masalan: **Birew** – patsha, kóptiñ qoli jetpegen, // **Birew** turmis keshirip júr ep penen (“Bul dúnyaniñ atqan jaqtı tañı da”). Shoir “**birew**” so'zini takrorlab inson taqdirini boshqa badiiy vositalar – frazeologizmlar, eskirgan so'zlar, og'zaki so'zlashuv tili leksikasiga xos birliklar, antiteza orqali mohirona tasvirlaydi.

Epifora hodisasi: a) bir so'z she'r bandining barcha misralarida takrorlanadi:

Zariqqan bolsa burında Abay,

Házir tap xalıqtıñ jırında Abay,

Kóriner túsım, ońımda Abay,

Muxtardıń ullı tońında Abay. (“Abay eskertkishine”)

b) bir so‘z she‘r bandining dastlabki uch misrasida; v) bir so‘z she‘r bandining ikkinchi va to‘rtinchi misrasida; g) bir so‘z she‘r bandining birinchi va uchinchi misrasida; d) bir so‘z she‘r bandining birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misrasida; e) bir xil so‘zlar har ikki misrada; j) bir xil so‘z she‘r bandining birinchi va uchinchi misralarida takrorlanib va unga parallel ravishda yana bir xil so‘z ikkinchi, to‘rtinchi misralarda takrorlanadi : *Úlken baylıq tabıw ushın, //Bizde onday hal da joq. /Eń bolmasa sawıw ushın, // Jalǵız sıyr, mal da joq* (“Tashimniń talabı”).

Anafora va epiforaning qo‘shilishidan **simploka** hodisasi paydo bo‘ladi. Bu murakkab uslubiy figura bo‘lib, qo‘shni yoki aralash qatorlarda boshlang‘ich va oxirgi qatorlar bir xil so‘zlarning takroridan shakllanadi. Masalan:

Hamal barda buwraday, taltańladıń, yar-yar,

Hamal ketip qoyanday, jaltańladıń, yar-yar.

Hamalı zor birewdi, kóptey kórdıń, yar-yar,

Hamalı joq kópti sen, shóptey kórdıń, yar-yar. (“Endi qarasam”).

Leksik takrorni shoir ko‘p miqdordagi narsalarni ifodalashda, narsaning belgisini, darajasini oshirishda, harakatning davomiyligini ifodalashda, leytmotiv – matndagi fikrning eng muhim, bosh motivi, u orqali aniqlik, qisqalik, tushunarlikka erishiladi, birdan e‘tibor qaratish maqsadida [4,10] foydalanadi. Ular ta’sirchanlikni oshirish, misralarni ketma-ketlikda bog‘lashga xizmat qiladi.

T.Jumamuratov she‘riyati tilida morfologik takrorning turlari: 1. otlar: Oy, **Dilyara**, **Dilyara**,//**Dilyaraga** bir qara (“Balalı úy bazar”); 2. sifatlar: *Birew ayttı: – Quyash sulıw, nur sulıw* (“Bul dúnyanıń atqan jaqtı tańı da”); 3. sonlar: **Bir** jıl islep **bir** qoy alǵan jalshılar.//*Qudıq qazıp, qoydı baǵıp taslaqqa*,//**Bir** jarım jıl jallanıp **bir** baspaqqa (“Qaraqalpaqstan sharwalarına shayırdan xat”); 4. olmoshlar: **Sen** ketken soń erinsheklilik basıp tur,//**Sen** bar bolsań yoshlanaman jasarıp (“Shabit”);5. ravishlar: **Kóp** oqıp, **kóp** bildim, bul azlıq etti, As bilmes naysaplar aspazlıq etti // (“Kúnniń nurı jerge ashıq pármána”); 6. fe‘llar: *As qádirin bilmegen, //Tarıqqanda ókingen*.//*Dos qádirin bilmegen, //Talıqqanda ókingen* (“Sawlıq qádirin”);7. Yordamchi so‘zlar: **Meyli**, sen arıqsań, **meyli** sen tolıq,//**Meyli**, sen patsha bol, **meyli** sen gedey (“Úzilse gúl qalar, sarǵayıp solıp”). Yordamchi so‘zlarning takror qo‘llanilishi – polisindeton hodisasi she‘riyatda faol qo‘llaniladi [5, 37].

Sintaktik takrorda so‘z birikmalari yoki gaplarning takrorlanishi (parallelizm, epanalepsis, anadiplosis) orqali fikr ta’sirchanligi oshirilib, ulardan oddiy va murakkab turlarini juda samarali, uyg‘un qo‘llaydi:

Kúnler ótti, kórgen tústey belgisiz,

Kúnler ótti, qaytıp onı kórgisiz. (“Ómir seni shalqıtadı, tusaydı”).

Parallelizm – ikki qo‘shni misradagi gap yoki gap bo‘laklarining bir xil parallel joylashib takrorlanishi. Bu usuldan shoir shunday foydalanadi:

Birew oylar, gáwhar bar dep túsinde,

Birew oylar polat bar dep kúshinde. (“Bul dúnyanın atqan jaqtı tańı da”).

Misralarda biri sintaktik birlikning boshida, ikkinchisi oxirida kelib, ularni bog‘lash – **epanalepsis** hodisasi ham shoir asarlari tilida uchraydi: *Shayirlıqtıń kók móresin ketirgen, //Shıǵıp talay kepek shashtı efirden... // Ğawashanıń sayasında kópirgen, // Shayirlıqtıń kók móresin ketirgen* (“Shınlıq – altın, jaynap turar nur bolıp!”). Bandlarda biri birinchi sintaktik birlikning oxirida, ikkinchisi esa ikkinchi sintaktik birlikning boshida qo‘llanilishi – **anadiplosis** hodisasi ma’no zanjirini hosil qilib, dastlabki misradagi so‘zni keyingi misrada to‘ldirib, kengaytirib, izohlab keladi:

Shadlı óstik álpeshlenip,

Álpeshlenip jastan biz,

Batırlıqtı úyrengezbiz,

Úyrengezbiz bastan biz. (“Jaslar tuwralı qosıq”).

Shunday qilib, T.Jumamuratov she’riyatida badiiy takror turlarining qo‘llanilishi – shoir poeziyasi tilining badiiy bezagi, u nafaqat ta’sirchanlikni, emotsionallikni oshiribgina qolmay, she’r ritmini, qofiyasini ham shakllantirib, so‘z ustasining o‘ziga xos uslubini ham namoyon etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Асқарова Ш.К. Инглиз ва ўзбек тилларида такрорнинг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. д-ри ... (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 12-13.
2. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 232-233.
3. Насыров Д.С., Бекбергенов А., Жәрімбетов А. Русша-қарақалпақша лингвистикалық терминлер сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. – Б. 24.
4. Минакова А.А. Типы повторов и их функции в поэтических текстах Евгения Евтушенко: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2012. – С. 10.
5. Десяева Н.Д., Арефьева С.А. Стилистика современного русского языка. – М.: Академия, 2008. – С. 37.